XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-48-126-11-158-K/22 Rishton tumani hokimligi

Rishton tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yil uchun belgilangan prognoziga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Rishton tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yillik tasdiqlangan rejasi 54179,0 mln.so‘m bo‘lib, 1-chorak uchun byudjeti daromadlarining tasdiqlangan rejasi 12738,0 mln.so‘m, 2-chorak uchun byudjeti daromadlarining tasdiqlangan rejasi 13111,0 mln.so‘m, 3-chorak uchun byudjeti daromadlarining tasdiqlangan rejasi 15800,0 mln.so‘m, 4-chorak uchun byudjeti daromadlarining tasdiqlangan rejasi 12530,0 mln.so‘mni tashkil qilgan.

Rishton tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yil 1-chorak uchun tasdiqlangan reja 60,0 mln.so‘mga kamaytirilib 12678,0 mln.so‘mni, 2-chorak uchun tasdiqlangan reja 825,0 mln.so‘mga ko‘paytirilib 13936,0 mln.so‘mni, 3-chorak uchun tasdiqlangan reja 1475,0 mln.so‘m kamaytirilib 14325,0 mln.so‘mni, 4-chorak uchun tasdiqlangan reja
1578,0 mln.so‘mga ko‘paytirilib 14109,0 mln.so‘mni tashkil qildi. Natijada Rishton tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yillik aniqlangan rejasi 55047,0 mln.so‘mni tashkil qilib, tasdiqlangan rejaga nisbatan jami 868,0 mln.so‘mga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni,O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 7 noyabrdagi “Farg’ona viloyatining 2022 yil mahalliy byudjet daromadlari

prognozini qayta ko'rib chiqish to'g’risida”gi 06/04-32/3860-sonli hamda viloyat moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 18 noyabrdagi 01/02-38/2611-sonli va viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022 yil 18 noyabrdagi 15-90718-sonli xatlari ijrosi yuzasidan tuman Moliya bo‘limi tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilgan xujjatlarni muhokamasidan va tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27,28 va 165- moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to'g’risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 7 noyabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2022 yil mahalliy byudjet daromadlari prognozini qayta ko'rib chiqish to‘g‘risida”gi 06/04-32/3860-sonli hamda viloyat moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 18 noyabrdagi 01/02-38/2611-sonli va viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022 yil 18 noyabrdagi 15-90718-sonli xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Rishton tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun tasdiqlangan daromadlari yoyilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan aniqlangan rejasi tegishliligi bo'yicha 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (I.Djurayev), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Raximov) mazkur qarordan kelib chiqib, 2022 yil mahalliy byudjet daromadlari prognoziga kiritilayotgan o'zgarishlarini tegishli hisobotlarda aks ettirish choralarini ko'rsinlar.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Mustafaqulov) tuman hokimligi moliya bo'limi (I.Djurayev), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Raximov) bilan birgalikda 2022 yil mahalliy byudjet daromadlari prognozini ortig‘i bilan bajarish choralarini ko‘rish hamda yil yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi to‘g‘risida hisobot berilishini ta'minlasinlar.

5. Barcha mas'ul tashkilot va idoralar 2022 yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozi ijrosi davomida tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushimini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsinlar.

6. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (D.Raximov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

-soliqlarning to'liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

-yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy taxlililar o‘tkazgan xolda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

-aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur xollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga harid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

-yer va mol-mulk soliqining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Quyidagilar:

-soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazani to'liq qamrab olish soliqlar yig‘ilishi darajasini oshirish, mavjud zahiralarni safarbar etish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali tegishli byudjet daromadlari prognozining bajarilishini ta'minlash;

-davlat soliq xizmati organi va mas'ul tashkilotlar rahbarlari byudjet daromadi prognoz ko'rsatkichlarini ortiqcha to'langan va undirilgan soliq summalari hisobiga bajarilishiga yo'l qo'ymasliklari bo'yicha qat'iy ogoxlantirilganligi alohida ko'rsatib o'tilsin.

8. Tuman hokimligi moliya bo'limi (I.Djurayev), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Raximov) mas'ul idoralar bilan birgalikda 2022 yil mahalliy byudjetlar daromadlari prognoziga kiritilayotgan o'zgarishlar va ularning kutilayotgan ijrosi bo'yicha hisobotlarini Xalq deputatlari tuman kengashiga kiritsinlar.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Mustafaqulov hamda

Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (D.Rahmonqulov) zimmasiga yuklansin.

Туман хокими **С.Солиев**

Xalq deputatlari Rishton tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-48-126-11-158-K/22-son qaroriga
1-ilova

Rishton tuman mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlariga 2022 yil 4 choragida kiritligan o‘zgarishlar bilan daromadlari miqdori

№	D A R O M A D L A R	Rishton tuman maxalliy byudjeti		(+;-)
		Rishton tuman maxalliy byudjeti	Аниқланган режа	
1	Jismoniy shaxs.ol.daromad solig‘i	6413	6837	424
2	YaTT daromad solig‘i	260	269	9
3	Yuridik shaxslarning foydasiga soliq	0	0	0
4	Aylanmadan soliq	2206	1660	-546
5	Jism.shaxs.mol-mulkiga soliq	771	1326	555
6	Yuridik shaxslarning yer soliq	719	1083	364
7	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	1250	1926	676
8	Yagona yer soligi	0	0	0
9	Yurid.shaxs. mol-mulkiga soligi	122	328	206
10	Kushilgan kiymat soligi			0
11	Aksiz soligi			0
12	Aksiz s.shax.tr.vos.u/n benz.yoq.gaz. soliq	436	466	30
13	Suv resurslar.foy.ligi uchun soliq	282	159	-123
14	Yer karidan kozib olingan boy. u.sol. (noruda)	33	19	-14
15	Nominal qiymatidan yuqori sotish hisobiga	0	0	0
16	Bozorlardan tushgan daromadlar	0	0	0
17	Davlat boji	0	0	0

18	Trans.vosit.kayta ruyx.ut. yigim	0	0	0
19	Maxalliy yig‘imlar	0	0	0
20	Jarima sanktsiyalari	0	0	0
21	Davlat mulki ijarasi. tushgan tush.	39	36	-3
22	Musodaradan tushgan tushumlar	0	0	0
23	Boshka tushumlar	0	0	0
	J A M I	**12531**	**14109**	**1578**

Xalq deputatlari Rishton tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-48-126-11-158-K/22-son qaroriga
2-ilova

Rishton tuman mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlariga 2022 yilda kiritiligan o‘zgarishlar bilan daromadlari miqdori

T/P	Tuman nomi	2022 yillik tasdiqlangan reja	Shu jumladan				2022 yillik aniqlangan reja	Shu jumladan				2022 yilda kirtilgan o’zgarishlar jami (+;-)	Shu jumladan			
			1- chorak	2- chorak	3- chorak	4- chorak		1- chorak	2- chorak	3- chorak	4- chorak		Daromadlar bo’yicha moliya vazirligining bildirishnomalariga asosan kiritilgan o’zgarishlar (+;-)			
													1- chorak	2- chorak	3- chorak	4- chorak
1	Rishton tumani	54179	12738	13111	15800	12530	55047	12678	13936	14325	14108	868	-60,00	825	-1475	1578
	J A M I	54179	12738	13111	15800	12530	55047	12678	13936	14325	14108	868	-60	825	-1475	1578